

OLIY DARAJADA ERISHILGAN KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISHGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Oliy darajada, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlarini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish, hududlar darajasidagi samarali aloqalarni, faol madaniy-gumanitar va ta‘lim almashinuvini kengaytirish

“GAZPROM NEFT” KOMPANIYASI BILAN HAMKORLIKNING ISTIQBOLLI REJALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Gazprom neft” kompaniyasi boshqaruvi raisi Aleksandr Dyukovni qabul qildi.

Rossiyaning ushbu yetakchi kompaniyasi bilan neft-gaz majmuasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni tegishli “yo‘l xaritasi”ga muvofiq rivojlantirishning istiqbolli rejalari ko‘rib chiqildi.

Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, murakkab konlarni o‘zlashtirish, sohani raqamlashtirish,

O‘ZA

MAHALLALARDA JINOVATCHILIKNI JILOVLASH AHOLI FAROVONLIGI VA IQTISODIYOT RIVOJINING MUHIM SHARTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallada jinoyatchilikni jilovlash va qonun ustuvorligini ta‘minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining yil boshidagi birinchi qarori shu masalaga qaratilgan edi. 3-yanvarda imzolangan mazkur qarorda soha idoralari uchun 2025-yilda har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish ustuvor vazifa etib belgilandi hamda kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarga mas‘ul rahbarlar nomma-nom biriktirildi.

O‘tgan olti oyda har bir viloyat, tuman va mahalla bo‘yicha manzilli “yo‘l xaritalari” asosida ijtimoiy profilaktikaning samarali tizimi yo‘lga qo‘yildi, jamoat joylarini raqamlashtirish qamrovi oshirildi, huquq-tartibot oliygohlari tomonidan ilmiy-amaliy o‘rganishlar o‘tkazildi. Alohida e‘tibor voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar va oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatchilikni jilovlashga qaratildi. Buning natijasida 5 ming 200 ta mahallada birorta ham jinoyat sodir bo‘lmadi.

Lekin kriminogen vaziyati og‘ir mahallalar hali ham bor. Profilaktika inspektorlari, tekzor-qidiruv, patrul-post va qo‘riqlash xizmati faoliyatini kuchaytirib, aholi xavfsizligini joylarda ta‘minlash shartligi qayd etildi. “Butun tizimni pastga” tushirib, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish zarurligi ta‘kidlandi.

Aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik holatlari ko‘p uchrab turibdi. Bunga qarshi kurashilayotgan, zararli vositalar va laboratoriyalar yo‘q qilinayotgan bo‘lsa-da, muammo to‘la bartaraf etilmagan. Shu bois, videokuzatuv kameralari va sun‘iy intellektni qo‘llab, giyohvandlik moddalari tarqalishini aniqlash, manbasini tag-tomiri bilan yo‘q qilish kerakligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bugungi kundagi yana bir dolzarb muammo — kiberjinoyatchilik. Yurtimizda yil boshidan buyon sodir etilgan jinoyatlarning 42 foizini shu “illat” tashkil qilgan.

Shu jihatdan, O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil 30-aprelda imzolangan “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi. Undagi vazifalarni to‘la amalga oshirib, kiberjinoyatlarning oldini olish, aholining bu boradagi bilimi va ogohligini kuchaytirish, to‘lov tizimlarida mijozlarning manfaati va moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash zarurligi aytiladi.

Soha xodimlarining bilim va malakasini oshirish — zamon talabi. Shu bois, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi faoliyatini

O‘ZA

IJTIMOIIY TARAQQIYOT

YOXUD INSON, JAMIYAT VA DAVLAT O‘RTASIDAGI IJTIMOIIY-MA‘NAVIIY HAMKORLIK, O‘ZARO MAS‘ULIYAT HISSI MASALASIGA OSHKORA NAZAR



Buyuk o‘zbek yo‘li



Ko‘p ming yillik jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlat qurilishi, boshqaruvi, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar masalasida bir-biriga aynan o‘xshagan ikkita mamlakatni topish aslo mumkin emas. Axir insoniyat yaratilgandan, davlatlar barpo etilganidan beri qanchadan qancha mamlakatlar, jamiyatlar yuzaga kelmadi. Ammo tarixchi, siyosatshunos va boshqa ijtimoiy-gumanitar olimlarning birortasi ham barcha jihatlarini bilan bir-birini takrorlaydigan davlatlarni izlashi befoyda.

Bu tabiiy hol. Chunki insoniyat mavjudligi, odamlar baxtu saodati, farovonligi har doim ham “shaxs — jamiyat — davlat” uchligi, ular o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatiga bog‘liq bo‘lgan. Mazkur muvozanat ta‘minlangan joyda har doim taraqqiyot bo‘lgan, odamlarning roziligi his etilgan, uning aksi yuz bergan hollarda esa bo‘ronli holatlar, ortga ketishlar sodir bo‘lgan. Bunday holni dunyoning har bir mamlakati tarixida ko‘rish mumkin.

Ana shunga o‘xshash holatlar qadim tarix va yuksak sivilizatsiyalar maskani bo‘lgan O‘zbekistonda ham ko‘plab uchraydi. “Inson — jamiyat — davlat” uchligiga qat‘iy amal qilgan, ular o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unligiga erishishni maqsad qilib qo‘ygan davrlarda mamlakatimiz rivoj topdi, aksincha, mazkur holatdagi nomutanosiblik shaxs noroziligiga, jamiyat aynishiga, davlat tanazzuliga sabab bo‘lgan.

Davomi 3-betda

NAMANGAN — TADBIRKORLAR YURTI, KICHIK VA O‘RTA BIZNES MARKAZI



Obod manzillar



Faol bir nuroniy sifatida yurtimizning go‘zal shaharu qishloqlariga safarlarim chog‘ida yoki Namanganga boshqa viloyatlarimizdan kelgan mehmonlar bilan, umuman olganda, turli yoshdagi odamlar bilan ko‘p muloqotda bo‘laman. Ko‘pincha bunday suhbatlar o‘zaro tanishuvdan boshlanadi va ular namanganlik ekanimni bilgani hamonoq aksariyat hollarda bir xil savol bilan yuzlanadi: “Namanganda ishlab chiqarish sanoati Xitoydagidan ham rivojlanib ketgan deb eshitamiz, shu gap rostmi?”.

Ularga boshdan-oyoq razm solib, “Kiyim-boshingiz chiroyli ekan, yarashibdi, qayerda ishlab chiqarilgan?”, deb savoliga savol bilan javob beraman. Suhbatdoshim yuziga tabassum yuguradi, “Namanganda ishlab chiqarilgan”, deydi.

Ha, keyingi yillarda viloyatimizda ahvol butkul o‘zgardi: odamlarimizning turmush tutumi, tadbirkorlik tafakkuridan tortib, qilayotgan ishga fidoyiligigacha, ta‘lim va tibbiyot tizimidan tortib, qishloq xo‘jaligi-yu qurilishlarga. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatida aksariyat yurtdoshlarimiz e‘tirof

etayotganidek, tom ma‘nodagi “katta sakrash” yuz berdi.

Maqtanishga yo‘ymang, axir bundan sanoqli yillar oldin Namangan viloyati iqtisodiy jihatdan nochor edi, dotatsiyada o‘tirardi. Bugungi kundagi holat bilan u davrdagisining o‘rtasidagi farq yer bilan osmon qadarki, qisqa fursatda qo‘lga kiritilgan katta natijalar, taraqqiyot shiddatini haqli ravishda “katta sakrash” desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davomi 2-betda

Bir o‘lkaki...

SURXONDARYOLIKLARNING HAYOT TARZI O‘ZGARIB, ERTANGI KUNGA ISHONCHI ORTIB BORMOQDA

— Jurnalist bo‘lsangiz, mana, bizni televizorga olib chiqing-da! — degan ovoz eshitildi orqa tomondan. O‘g‘irilib, “Cobalt”ning orqa o‘rindig‘ida o‘tirgan o‘rta yoshlardagi oq-sariqdan kelgan xolaga gazetada ishlashimni aytdim.

— Yaxshi-ku, rasmim bilan chiqarasiz. Har esimga tushganda hamsoyalarga ko‘rsatib, maqtanib yuraman, — dedi xola bo‘sh kelmay. — Mana, Prezident tomorqada ishlanglar deyapti, hovlimizga uch qayta ekin ekip daromad olyapmiz. Kelinlar bolasini bog‘chaga berib (ilgari bog‘cha degani ham yo‘q edi, hamsoyamiz shuning orqasidan tadbirkor bo‘lib ketdi)... Nima deytogandim? Ha, bog‘cha ochilgach, kelinlar ham bemalol ishini qilyapti, vaqtida damini olyapti.



Shu payt xola hech kutilmaganda ovozi baralla qo‘ydi: “Voy o‘lmasam, gap sotaman deb uyimdan o‘tib ketibman, to‘xtang”.

Mashina toshyo‘lning chetiga chiqib, tormoz bosdi. Xola mashinadan tushayotib, tag‘in menga xitob qildi: “Agar zo‘r maqola yozaman desangiz, mahallamizga keling, xo‘pmi? Bizda qahramonlar ko‘p. Ungacha tosh ko‘chamiz asfalt bo‘ladi”.

Xola hammamizga xush kayfiyat ulashib tushib qoldi. Avvaliga xolaning samimiyati, so‘ng u boshlab bergan mavzu — Surxondaryodagi o‘zgarishlar haqida gurgunlashib ketdik. Ko‘p bora kuzatganman, bunday gurgunlarda soxtalik bo‘lmaydi.

Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Munosabat

HAR BIR FUQARO TAQDIRI BILAN BOG'LIQ IJOBIY O'ZGARISHLARGA ASOS YARATUVCHI MUHIM TASHRIF

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar tarixi, madaniy va strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ikki davlat xalqlarini o'xshash milliy urf-odat, an'analar, madaniyat va din, ikki tomonlama aloqalarining boy tarixi hamda mintaqaviy hamkorlikdagi umumiy manfaatlar birlashtiradi.



Bu — ikki xalq o'rtasidagi qalban yaqinlik va musharaklikning o'ziga xos in'ikosi o'laroq qardosh xalqlar o'rtasidagi madaniyat, san'at, ilm-fan va ishlab chiqarishni yanada yaqinlashtirib, amaliy hamkorlik uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston va Ozarbayjon yaqinlashuvida muhim qadam bo'lgan ushbu davlat tashrifi **oddiy xalq manfaatlariga** xizmat qiladi. Xususan, iqtisodiyotning turli sohalari, jumladan, energetika, logistika, sanoat va qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi hamkorlik kengayishi natijasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, yangi bozorlar, energetik yo'nalishlarning ochilishi **tadbirkorlar va fuqarolar uchun yangi imkoniyatlar** eshigini ochadi.

Masalan, 2024-yil noyabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan BMT Iqlim sammiti doirasida ikki mamlakat yetakchilari tomonidan ishga tushirilgan, maydoni 1,2 gektar, umumiy investitsiya qiymati 6,2 million AQSH dollarini

million dollarga yetdi. 2025-yilning yarim yilligi holatiga ko'ra, 80 million dollarni tashkil etmoqda. **Bu o'sish — o'zaro ishonch, bozorlar ochiqligi va birgalikda rivojlanishga bo'lgan qat'iy intilish samarasidir.** Har bir yangi iqtisodiy ko'rsatkich ikki davlat xalqlari uchun yaratilgan imkoniyatning ifodasi.

Iqtisodiy kooperatsiya yilida tovar ayirboshlash hajmi **25 foizga** oshdi. Loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetgan. 300 ga yaqin qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Navbatdagi davlat tashrifi ham bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Xususan, Oliy davlatlararo kengashning 2-yig'ilishi davomida tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmini **yiliga 1 milliard dollarga** yetkazish imkoniyatlari atroflicha muhokama etildi. Natijada **2030-yilga qadar tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish** dasturi qabul qilindi.

Marralar katta, niyatlar ezgu. Ishga solinmagan salohiyat nihoyatda ulkan. Bu salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun har ikki

mo'ljallangan **sanoat kooperatsiyasi dasturi**, 2025-2027-yillarda **qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti** sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasini qabul qilinishi aynan iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, savdo-sotiqni soddalashtirishga xizmat qiladi. Zotan, har bir yo'nalish — sanoatdan tortib, oziq-ovqat xavfsizligigacha xalqlarimiz manfaatiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ekologiya, ijtimoiy himoya hamda madaniy-gumanitar aloqalar ham izchil rivojlanmoqda. Xususan, davlat tashrifi davomida qabul qilingan **Atrof-muhitni muhofaza qilish** sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim, 2025-2027-yillarda ijtimoiy himoya sohasida hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ekologiya va ijtimoiy himoya yo'nalishlaridagi hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Ta'lim va fan sohasida tajriba almashish, turizmi rivojlantirish kabi sohalarida hamkorlik samarali olib borilmoqda. Tashrif davomida Fan, kasb-hunar va oliy ta'lim sohalarida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimning imzolalanishi ushbu yo'nalishda ishlarning jonalanishi, xususan, dual ta'lim, ta'limni raqamlashtirish, fan va biznesni o'zaro yaqinlashtirish, o'zaro bog'lash masalalarida manfaatli hamkorlikka zamin yaratmoqda.

Eng muhim jihati shundaki, **bugun qo'yilayotgan ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik asoslari — kelajak avlodning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik sarmoyadir.**

Bu hamkorlik ikki mamlakat yoshlari — talabalar, tadqiqotchilar va ustozlar uchun yangi bilim olish, ilmiy salohiyatni oshirish, tajriba almashish va dunyoqarashni kengaytirish, pirovardida xalqlarimiz kelajagini bog'lovchi ma'rifiy ko'priknig yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Bu, avvalo, jamiyat taraqqiyotining asosiy lokomotivi — bilimni, tajribani va yuksak salohiyatli mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilishi istiqbolda yuqori texnologiyali ish o'rinlari, raqobatbardosh iqtisodiyot va ma'rifatlil jamiyatni shakllantirishga poydevor bo'ladi.

E'tiborsiz, dunyo miqyosida ishonch inqirozi, geosiyosiy taranglik va xavfsizlik muammolari tobora avj olayotgan bugungi tahlikali sharoitda bunday samarali hamkorlik tadbirlarining amalga oshirilayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu sharoitda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarni nafaqat ikki tomonlama, balki **Markaziy Osiyo, Kavkaz mintaqalari va umuman, Yevroosiyo makonida barqarorlik, farovonlik va rivojlanishni** ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu munosabatlarning izchil mustahkamlanishi kelgusida davlatlarimiz va ikki mintaq uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.



Obod manzillar



NAMANGAN — TADBIRKORLAR YURTI, KICHIK VA O'RTA BIZNES MARKAZI



Ikromxon NAJMIDDINOV,
“Nuroni” jamg'armasi
Namangan viloyati bo'limi raisi,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Viloyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga eng to'g'ri va xolisona bahoni davlatimiz rahbari 2023-yil 3-fevral kuni Namanganga tashrifi chog'ida bergan edi: **“Tasavvur qiling, olti yil avval dotatsiyada bo'lgan viloyat bugungi kunda mustahkam daromadga ega bo'ldi, zamonaviy sanoat va kuchli tadbirkorlar shakllandi. Oddiy qilib aytganda, Namangan hech mubolag'asiz tadbirkorlar yurti, kichik va o'rta biznes markaziga aylandi.”**

Darhaqiqat, shunday. Prezidentimiz o'tgan kuni Namangan viloyatida islohotlar natijadorligi, hududlardagi ishlarning borishi va loyihalar ijrosi yuzasidan hisobot bilan tanishar ekan, bu jihatlar yana bir bor



e'tirofini topdi. Qayd etilganidek, davlatimiz rahbarining 2024-yil 2-dekabrda qarori bilan viloyatni 2025-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash yuzasidan katta marralar belgilangan edi. 4,2 milliard dollar investitsiya jalb etish, 1 milliard dollar eksport qilish, 323 ming ish o'rni yaratish, 55 ming oilani kambag'allikdan chiqarish kabilar shular jumlasidan.

Maqsad va marralarning bu qadar katta olingani bejiz emas. Zero, Namanganda bunga katta zamin bor. Yuqoridagi aytib o'tganimizdek, viloyatda kichik biznes va tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda, asosiysi, mehnatga layoqatli aholining 82 foizi shu sohada faoliyat yuritib, ro'zg'or tebratyapti, orzu-havaslari ro'yobini ko'rmoqda.

Yoki o'zimiz tug'ilib o'sgan Yangiqo'rg'onni olaylik. Tumanimizda, ayniqsa, qishloq xo'jaligida erishilayotgan natijalar quvonarli — gektaridan 20 ming dollardan yuqori daromad. Yig'ilishda bu jihatning alohida e'tirof etilishi vodiklik dehqonlar kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shish barobarida, yurtimizning barcha usta mirishkorlari uchun o'ziga xos motivatsiya bo'ldi deb o'yayman.

Asalari mudom gul shirasini qidirib topgani kabi investorlar har doim sarmoyasini kiritish uchun qulay joy qidiradi. Shu ma'noda, mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilgani, viloyatimizda tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanayotgani

xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda qo'l kelyapti. Jumladan, yil boshidan buyon viloyatimizga qariyb 1 milliard 600 million dollar investitsiya kiritilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

E'tirofqa, e'tiborga loyiq ishlarning ko'pligi yaxshi, albatta. Zotan, ularning har biri zamirida yuzlab, minglab yurtdoshlarimizning farovonligi, bugungi yashayotgan kunidan roziligiga erishish maqsadi mujassam. Modomiki shunday ekan, masalaga tanqidiy-tahlil nazari bilan qarab, mavjud imkoniyatlarni ishga solish orqali yanada katta natijalarga erishsak, ayni muddao bo'ladi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, joylardagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan hududlar ma'muriy va iqtisodiy jihatdan isloh qilinmoqda. Namangan viloyatida ham mutaxassislar, ilg'or tadbirkorlar va xorijiy ekspertlardan iborat “Islohotlar shtabi” ish boshladi. Ularning birgalikdagi izlanishlari natijasida yana 1 milliard dollar qiymatidagi loyihalar shakllandi.

E'tibor bering, ularni hayotga tatbiq etish natijasida 12 mingta ish o'rni tashkil etiladi va bu shuncha odam doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi, kamida 30 ming odamning turmushida o'zgarish paydo bo'ladi, ro'zg'origa baraka, xotirjamlik, farovonlik kiradi degani. Bundan tashqari, ushbu loyihalar hisobiga byudjetga qo'shimcha 200 milliard so'm tushum, 160 million dollarlik eksport manbai paydo bo'ladi.

Bugungi kunda viloyatimizda 55 ming ishsiz aholi, 44 ming kambag'al oila bor. Yig'ilishda ularni bozorda talab yuqori

Islohot odimlari



Dunyoda sanoatlashmagan soha qolmadi hisob. Insoniyat allaqachon aksariyat tarmoqlarda qo'l mehnati o'rnini sanoat ishlab chiqarishga bo'shatib berdi. Ammo bu bilan odamlar ishsiz qolmadi, aksincha, bugun mamlakatlarda iqtisodiy o'sishi ham, aholi bandleligini ta'minlash, hududlar rivoji ham aynan sanoat tarmoqlari taraqqiyoti bilan bog'lanmoqda. Dunyodagi tebranishlar sharoitida har bir davlat, avvalo, eng ko'p ish o'rinlari yaratadigan sohalarni himoyalash choralarini ko'rsayapti. Buning asosiy qismi esa sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yaqqol misol, bugungi kunda yurtimizda to'qimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik sohalarida 1 milliongga yaqin aholi ishlamoqda. Boshqa tarmoqlarni ham qo'shib hisoblasangiz,



tashkil etuvchi hamda 800 ish o'rniga ega **Xonkendi shahridagi qo'shma tikuvchilik fabrikasi** faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu kabi loyihalar O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishi bilan birga, xorijda ham yurtimiz ishlab chiqaruvchilariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu orqali har ikki qardosh davlatlar fuqarolari uchun yaratilgan ish o'rni, mamlakat uchun geoiqtisodiy ta'sir vositasiga aylanmoqda.

Umuman, oxirgi 5 yilda davlatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki baravardan oshib, 2024-yil oxiriga kelib, 253

tomonda ham siyosiy iroda, xalq manfaatini ustuvor qo'yadigan musharak intilish, strategik qarash va uzoqni ko'ra oladigan siyosat mavjud. Davlatlarimiz rahbarlarining mustahkam irodasi va samimiy hamkorlik ruhi orqali ulkan marralarga erishish mumkinligi o'z isbotini topib ulgurdi.

Tashrif davomida ushbu marraga erishish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha bir qator muhim dastur va rejalar qabul qilindi. Xususan, 2030-yilga qadar **tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish dasturi**, 2025-2026-yillarga

MAHALLIY SANOAT SALOHIIYATI YIL BOSHIDAN BUYON 460 TRILLION SO'MLIK SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRILDI



Bobur QO'ZIYEV,
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
bo'lim boshlig'i

raqamlar karrasiga oshadi. Ya'ni mahalliy sanoat rivoji tobora muhim zaruratga aylanmoqda.

Keyingi yillarda ayni shu yo'nalishdagi islohotlar, xususan, mahalliy sanoatni

modernizatsiyalash, ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va ish o'rinlari sonini ko'paytirish harakatlari o'z natijasini ko'rsatayapti ham. Ko'rsatkichlar, raqamlar doimiy o'sib boryapti. Agar shu yilning birinchi choragidagi tahlillarni qarasak, yurtimizda sanoat mahsulotlari hajmi 211 trillion so'mni tashkil etgan. Ana endi yarim yillik hisobot pallasida turibmiz. Bunday natijalar ham bizni quvontiryapti. Yil boshidan buyon O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi 460 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu degani, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 foiz o'sishga erishildi.

Mazkur raqamlar bevosita boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Aytaylik, buning ortidan sanoatning yurtimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 26,8 foizga yetdi. O'tgan yarim yillikda, ayniqsa, qurilish materiallari, oziq-ovqat, avtomobilsozlik, to'qimachilik va metallurgiya kabi dreyver tarmoqlarda barqaror o'sish sur'atlariga erishilgani kuzatilmoqda. Hududlar kesimida Jizzax, Navoiy, Xorazm, Namangan va Qashqadaryo viloyatlari yetakchilik qilib, yuqori o'sish ta'minlandi.

Asosiy turdagi mahsulotlar bo'yicha oladigan bo'lsak, yirik korxonalar tomonidan 56,7 tonna oltin, 80 tonna kumush, 24,7 million kvadrat metr oyna, 7 million tonna sement, 29 million kvadrat metr gipsokarton, 360 million kvadrat metr ip-gazlama, 438 million dona trikotaj mahsulotlari, 112 ming tonna trikotaj mato ishlab chiqarildi. Ushbu mahsulotlarning har biri avvalgi davrlardagidan ko'proq ishlab chiqarilib, o'sish qayd etilgan. Bu bozordagi savdolarda ham aks etyapti. Masalan, yurtimiz tovar-xomashyo birjasi bitimlari o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,3 barobar ortib, 82,7 trillion so'mni tashkil etdi.

Albatta, o'sish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish uchun aniq harakat, iqtisodiy imkoniyat, zarur infratuzilma talab etiladi. Ayni shu masalalar mamlakat darajasida hal etilayotgani, yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar, korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama



Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz qayd etganidek, “inson — jamiyat — davlat” degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz, pirovard natijada kuchli davlat, zamonaviy talablarga javob beradigan jamiyat va odamlar uchun munosib hayot barpo etamiz. “Mamlakatimiz Konstitutsiyasida insonning siyosiy va boshqa huquq-erkinliklarini amalga oshirish hamda davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta’minlash, jamiyatning erkin siyosiy tizimini shakllantirishga ko’maklashish, shuningdek, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati tuzilmalari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish masalasi ham kafolatlandi. Zotan, davlat hokimiyatining tom ma’noda xalqchil, demokratik xususiyatga ega bo’lishida ushbu tamoyilning ahamiyati beqiyos. Bunday davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy ildizlari mustahkam va barhayot bo’ladi. Shu sababdan biz xalqimizning og’irini yengil qilish, muammolarini vaqtida hal etish, hayot darajasini yaxshilashni barcha islohotlarimizning bosh maqsadi etib belgiladik”, deydi davlatimiz rahbari “Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston” kitobida.

Shu o’rinda “inson”, “jamiyat”, “davlat” tushunchalari haqida qisqacha ma’lumot berishni ma’qul ko’rdik. Inson bu yorug’ dunyodagi barcha jonli mavjudotlardan o’z aqli, mohiyati, madaniyati, axloqi, tafakkur tarzi, boshqa ko’plab ma’naviy-madaniy jihatlari bilan ajralib turadigan ijtimoiy vujud. Uni axloqiy me’yorlar boshqaradi, u o’z amaliy faoliyatini tartibga sol biladi. Jamiyat esa odamlar uyushmasining alohida maxsus turi, kishilar o’rtasida amal qiladigan ko’plab munosabatlar majmui, juda murakkab ijtimoiy tizim. Jamiyat odamlar orasida amal qiladigan axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, g’oyaviy-mafkuraviy, iqtisodiy, diniy munosabatlarning tarixan tarkib topgan majmuidir.

Davlat u yoki bu hududda, muayyan makon va zamonda tarkib topgan, alohida olingan mamlakat miqyosida mavjud hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga suvangan, jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun qonunlar ishlab chiqaruvchi hamda mustaqillikka ega bo’lgan siyosiy tashkilotdir.

Agar yuqoridagi tushunchalar mazmuniga diqqat bilan qaralsa, shubhasiz, ular bir-biri bilan mantiqan uyviyligini, davlat va jamiyat taraqqiyotini, shaxsning erkinligi va uning alohida qadriyat ekanini anglash qiyin emas. Shuning uchun ham bugun yangi O’zbekistonda, Uchinchi Renessansi barpo etish jarayonida mazkur uch fenomen hodisa ijtimoiy taraqqiyotning asl poydevori ekanini tushunish mumkin.

Shaxs, jamiyat va davlat hamkorligi to’g’risida, uning mamlakat va jamiyat, shaxs barkamolligi haqida keyingi paytlarda ko’plab fikrlar bildirilmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki “inson — jamiyat — davlat” uchligining mustahkam hamkorligi bo’lmagan har qanday davlat va jamiyatda beqarorlik yuzaga keladi, odamlar esa bunday beqarorlikdan jabr ko’radi. Bunga yaqin va uzoq tariximizdan ko’plab misollar kelirish mumkin.

Keling, yaxshisi, fikrimiz to’g’riligini isbotlash uchun quyidagi misolni keltiraylik: sobiq ittifoq tuzumi davrida oddiy odam eng qadrsiz edi. Jumladan, O’zbekistonda sovet maddohlari har qadamda o’zbek kishisi savodsiz, ma’rifiatsiz ekanini, shu asnoda yurtimiz qoloq, jahon tamaddunida hech qanday o’ringa ega emasligini bot-bot qaytarishdan charchamadi. Jamiyat esa ikkiga bo’lib tashlandi. “Oqlar” va “qizillar”, xudjo’ylar va ateistlar, dehqonlar va quloqlar kabi ijtimoiy tabaqalarga bo’lib tashlanishi jamiyatda ijtimoiy xavfni ko’paytirdi. Natijada ana shu xavfning oldini olish uchun “sinfy kurash” g’oyasi va uning “homilasi” sifatida qatag’on siyosati ishlab chiqildi. O’sh davrda davlat masalasi ham eng muammoli holatdandir bari bo’lib qolaverdi. Davlat tom ma’nosi bilan yo’qillamiki bo’lib qoldi. Har qanday boy davlatning ashaddiy dushmani sifatida baholandi. Kambag’alparvar davlat faqat yo’qsillarni qo’lladi, har qanday boylar ta’qib etildi. Bekorga o’sha paytlarda “Davlat — xalqni ezuvchi mashina”, degan aqida paydo bo’lmagan edi. Natijada “inson — jamiyat — davlat” munosabatlarda nomutanosiblik yuzaga keldi. Oxir-oqibat buning natijasida sovet mustabid tuzumi barbot bo’ldi.

Shuning uchun ham keyingi yillarda, ayniqsa, 2017-yildan boshlangan tub islohotlar zamirida avval mavjud bo’lgan ijtimoiy tajribadan saboq olish, ijtimoiy taraqqiyotga erishishning asl manbai — “inson — jamiyat — davlat” munosabatlari uyg’unlikka erishish masalasi yotar edi.

Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda bu uchlikning har biri o’ziga xos o’ringa ega. Agar inson qadr-qimmatini topatsa, jamiyatda o’zaro hamjihatlik bo’lmasa, bu jarayonda davlat o’zining funksional vazifasini bajara olmasa, pirovard natijada o’sha mamlakatda bo’ronli holat yuzaga keladi.

Biz yuqorida jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida uchlikning har biri o’zining alohida, xususiyatli o’rniga ega, dedik. Biroq mavjud uchlikda ustuvor



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

o’rinni inson masalasi egallaydi. Shuning uchun ham yangi O’zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa ko’plab ajralmas huquqlari umuminsoniy oliy qadriyatga aylanib bormoqda.

Inson qadri, uning sha’ni masalasi aslida Sharq, shuningdek, o’zbek milliy-madaniy merosidagi iyerarxiyada eng dastlabki o’rinlarni egallaydi. Davlatimiz rahbari “Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston” kitobida bunday qayd etadi: “BMT ekspertlari va ko’plab taniqli olimlarning ta’kidlashicha, erkinlik, tenglik va adolat, inson qadri, uning huquqi va manfaatlarini himoya qilish, shuningqi adolati boshqarish, xalq farovonligini ta’minlash kabi g’oyalar dastlab qadimgi Sharq davlatlarining qonunlari va falsafasida rivojlana boshlagan. O’tmishda inson huquqlari umume’tirof etilgan ilk deklaratsiya ham aynan Sharqda yaratilgan, desak mubolag’a bo’lmaydi”.

Uchlikning uyg’unligini ta’minlash oson emas. Masalan, insonni olib ko’raylik. Hech shubhasiz, har bir insondan talab etiladigan qadriyatlar sifatida yuksak vatanparvarlik, milliy o’zlikni anglash, axloqiy poklik, mehnatsevarlik kabi qator omillarni sanash mumkin. Ammo bu o’rinda bir jihati e’tiborga olish lozim — inson tug’ilgandan ayrimlarga muayyan darajada xudbinlik, aggressivlik shakllana boshlaydi.

Yengil yo’llar bilan boylik o’rttirish, vatan va millat manfaatlarini nazar-pisand qilinish, jamiyatda yashash me’yorlarini tan olmaslik kabi omillar oramizdagi ayrim odamlarda turli salbiy sifatlar yuzaga kelishiga sabab bo’lmog’da. Natijada ana shunday kishilar jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga muayyan darajada xalaqit qiladi. Bularning bari “inson — jamiyat — davlat” munosabatlari uyg’unligi uchun qanday hissa qo’shatadi. Ammo uni hal etmay, ko’zlangan talabga erishish qiyin. Bu natijaga erishish uchun, birinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan, ayni paytda milliy mentalitetimizga suvangan holda yaratilgan qonunchilik bazasiga ega bo’lishimiz lozim.

Xolisona qayd etish kerakki, bu borada keyingi yillarda talay ishlar qilindi. Inson huquqlari, qadr-qimmatini muhofaza qiladigan, jamiyatda barqaror hamjihatlikni, fuqarolar tinchligini, o’zaro sof insoniy munosabatlarni ta’minlaydigan, davlatning xalqqa va faqat xalqqa xizmat qilishi, adolati va zamonaviy davlat qurish eng oliy maqsadimiz ekan masalasi qonuniy jihatdan asoslab berildi. Davlatimiz

rahbari doimo qayd etganidek, O’zbekiston tajribasi va turli mamlakatlardagi rivojlanish jarayonlari tahlili islohotlar samaradorligi va ortga qaytmassligini ta’minlash uchun, avvalo, ularning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini rivojlantirish hamda adolati qonunlar va qarorlar qabul qilish zarurligini ko’rsatmoqda. Chunki agar qonunchilik rivojlanishdan to’xtab, jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlardan ortda qolsa, bu hol ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida ham tizimli tus olib, hatto murosasiz qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin.

Demak, uchlikning o’zaro muvofiqligini ta’minlashda jarayonlarning huquqiy-me’voriy asoslarini yaratish juda muhim o’rin egallaydi. Nazarimizda, bugungi kunda bu holatga erishish uchun ikki jihat to’siq bo’layotganga o’xshaydi.

Birinchisi, ayrim fuqarolarimizda siyosiy madaniyatning yetishmasligi. Siyosiy madaniyat har birimizning umumiy madaniyatimiz asnosida shakllandi. Bunday madaniyat jamiyat a’zolari, har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini qay darajada bilishi, tushuna olish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab mustaqil ravishda to’g’ri xulosa chiqarish, ushbu xulosa asosida o’z harakatini amalga oshirish ko’nikmasidir.

Mamlakatda barcha sohalaridagi tub o’zgarishlar, islohotlar mohiyatini to’g’ri tahlil qila olmayotgan fuqarolarimiz borligini e’tiborga olish kerak. Buning sabablari esa, fikrimizcha, ba’zi odamlarda dunyoda va O’zbekistonda sodir bo’layotgan evolyutsion va revolyutsion o’zgarishlarni anglashga qiziqish yo’qligi, kechagi kun bilan bugunning farqini tushunishdagi no’voqliqi, ayrim hollarda esa sobiq sovet voqeligini qo’insashi kabilar bilan bog’liqdir. Shu ma’noda, uchlik muvozanatini ta’minlashda siyosiy madaniyatning o’rni juda katta.

Ikkinchisi, ayrim yurtdoshlarimizda, ayniqsa, o’zini “superdemokrat” hisoblaydigan ba’zi

Inson, jamiyat,
davlat o’rtasidagi o’zaro
hamkorlikning asl manbai ham
ilm-fan, ta’lim, madaniyat, ma’naviyat hamda
inson tafakkur tarzini rivojlantirishdan iborat.
Ushbu unsurlar orasida ma’naviyat alohida,
ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan,
ta’lim, madaniyat sohalaridagi, afsuski, bugungi
kunda ham uchrab turgan ba’zi noxush holatlar,
korruptsiya ko’rinishlari, ayrim adolatsizliklar
— bularning bari faqatgina yuksak va kuchli
ma’naviyat tufayligina bartaraf
etilishi mumkin.

yoshlarimizda xorij “demokratiyasi”, “G’arb dunyosi erkinligi”, “yangi axloq”, “yangi qadriyatlar” shiorlari ostida milliy-madaniy merosimiz, ming yillar davomida shakllangan milliy axloq, milliy qadriyatlarimiz, milliy tafakkur tarzimizga bee’tibor bo’lish, ba’zi hollarda ularni inkor etishdan iborat soxta “tafakkur tarzi” paydo bo’lmog’da. Shu ma’noda, “inson — jamiyat — davlat” o’zaro hamkorligini ta’minlashda siyosiy madaniyat bilan birga ma’naviy omillarning ta’sirchan kuchiga ham alohida diqqat qaratish lozimligini unutish aslo mumkin emas.

“Inson — jamiyat — davlat” munosabatlari qayerdadir sof qonunchilik mezonlari asosida muvofiqlashtirilishi mumkindir. Bunga bogunida G’arb dunyosidagi uchlik munosabatlari ham misol bo’la oladi. Masalan, 16 yoshga to’lgandan so’ng har bir yigit-qizning mustaqil bo’lishi, o’z taqdirini hal etishga individual yondashuv, bunda jamiyatda shakllangan qadriyatlarini e’tiborga olmaslik holatlari bola ota-onani sudga berishi, muhi masalalaridagi bahsni oddiy hol sifatida talqin qilish, faqat va faqat o’zini haq deb bilish, oila institutining jamiyatdan to’liq “erkinligi” kabi holatlar G’arb olamida pirovard natijada shaxs va jamiyat masalalarida davlatning bu masaladagi o’rmini to’liq inkor etishga olib kelmog’da.



Shu nuqtayi nazardan, bugungi yangi O’zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qilinayotgan ishlar biz yuqorida qayd etgan uchlikning o’zaro hamkorligi mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

Ikkinchidan, jamiyat taraqqiyotida uchlik munosabatlari o’zaro muvofiqlik shaxs, jamiyat va davlat tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarning o’zaro uyg’unligiga bog’liq. Tarixda har uchchala subyektning maqsad-muddaolari har doim ham bir xil bo’lavermagan. Mustabid tuzumlarda inson o’z iqtidori, imkoniyatlari, iste’dodini har doim ham to’liq amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’lmagan. Buning bosh sababi esa davlatning o’z hukmronligini mustahkamlash, odamlarni qo’rquvda ushlab turish, barcha yo’llar bilan bo’lsa-da, o’z totalitar zug’umini o’tkazishdan iborat edi. Davlat va inson manfaati nomuvofiqligi esa jamiyatda noxush holatlarni yuzaga keltiraverdi.

Shuning uchun yangi O’zbekiston sharoitida Prezidentimiz barcha vositalar bilan ana shu uchlikning mustahkam birligiga erishishga harakat qilmoqda. Davlatning boy, iqtisodiy mustahkam, jahon mamlakatlari orasida munosib o’rin egallashi, eng avvalo, shu makon va zamonda istiqomat qilayotgan odamlar, iste’dodi, iqtidorli fuqarolar salohiyatiga bog’liq. Davlatimiz rahbari shuning uchun yoshlarni davlatning eng katta boyligi, bebaho kapitali, uni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, intellektual va madaniy rivojlantirishning asosiy manbai sifatida e’tirof etmoqda.

Bugun yangi O’zbekistonda “inson — jamiyat — davlat” manfaatlaridagi o’zaro uyg’unlikni ko’rish mumkin. Agar manfaatlar uyg’unligiga erishilmasa, har uch subyekt amalda bir maqsad sari intilmasa, hech qanday taraqqiyot to’g’risida fikr yuritish mumkin emas.

Ayni paytda har uch subyektdan qaysi biring manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etishi masalasini ham to’g’ri talqin qilish kerak. Albatta, ham inson, ham jamiyat, shu bilan birga, davlat manfaatlarining har biri o’ o’rniga, muhim ahamiyatga ega. Ammo mazkur manfaatlar orasida inson manfaatlari hamma narsadan yuqori turadi. Davlatimiz rahbari bejiz “Avvalo, xalqimiz manfaatlariga javob beradigan ichki va tashqi siyosatimizni qat’iy amalga oshirishimiz zarur. Bu yo’lda duch kelishimiz mumkin bo’lgan barcha to’siq va g’ovlarni hisobga olishimiz, ulardan talafotsiz o’tish choralarini ko’rishimiz, turli og’ir sinovlar va oldindan bashorat qilib bo’lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o’tishga qodir bo’lgan milliy davlatchilgimiz asoslarini mustahkamlashimiz talab etiladi”, demadi.

Uchinchidan, inson, jamiyat va davlat o’zaro hamkorligini ta’minlashda oldimdiza turgan yuksak maqsad va vazifalarga sidqidildan munosabatda bo’lish, muammolarni hal etishda qat’iyatlilik talab etiladi. To’g’iyatlilik har bir insondan oldida turgan vazifalarni chuqur o’rganishni, qaror qabul qilishda masalaning ham nazariy-ilmiy, ham pragmatik-amaliy tomonlarini tahlil etishni taqozo etadi. Qat’iyatlilik murosasozlik va kelishuvchanlikni inkor etadi. Nazarimizda, xalqimiz mentalitetidagi har bir narsa-hodisa, har bir odamga tahlilsiz munosabatda bo’lish bizga ko’p ziyon yetkazayotgandek.

Qat’iyatlilik barcha sohalar — ham iqtisodiyotda, ham siyosatda, shuningdek, ijt-

2025-yil 9-iyul, 139-son



mumkin emas. Shu o’rinda davlatimiz rahbarining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig’ilishida aytgan quyidagi so’zlarini alohida ta’kidlashni istadik: “**Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg’oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqadilar**”.

Beshinchidan, inson, jamiyat va davlat o’zaro hamkorligini ta’minlaydigan shunday omillar borki, ularga alohida ustuvor ahamiyat berish lozim. Nazarimizda, bular o’z iyerarxiyasi tuzilishi nuqtayi nazaridan quyidagilardan iborat: a) ilm-fan, ta’limni rivojlantirish; b) madaniyatni mamlakat va millat taraqqiyotining muhim omili sifatida tan olish; d) shaxs tafakkur tarzidagi islohotlar; e) yuksak ma’naviyat.

Shuning uchun ham Prezidentimiz ilm-fan, ta’lim sohasining rivojiga katta e’tibor bermoqda. Millat va mamlakat kelajagi ham ilm-fan va ta’lim sifatiga bog’liq. Ayniqsa, fundamental va gumanitar fanlar sohasida istiqbolli va yuqori texnologik yo’nalishlar bo’yicha malakali kadrlar tayyorlash, shu asnoda ilm-fanning nanotexnologiya, biotexnologiya, nanoelektronika, biotibbiyot kabi yo’nalishlarini rivojlantirish davlatni yanada boyitadi, mustahkamlaydi, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviyat barqarorligini ta’minlaydi, odamlar, ayniqsa, yoshlarda yangi, istiqbolli g’oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

Shuningdek, inson, jamiyat va davlat barqarorligi madaniyat kabi muhim fenomen hodisa mavjudligiga ham bog’liq. Aslida, madaniyatsizlik madaniy me’yorlar, qadriyatlar, umume’tirof etilgan tarbiya tizimi, axloqni muqarrar ravishda inkor etish, ba’zan mazax qilishgacha olib keladi. Qolaversa, yozilmagan qoidalar tizimi sifatida madaniyat xalqni yaxshilikka, axloqqa, sog’lom turmush tarziga yetaklaydi. Shu ma’noda, madaniyatni donishmandlik haqidagi ta’limot sifatida talqin etsa ham bo’ladi.

Xo’sh, inson, jamiyat va davlat hamkorligi masalasida madaniyat qanday rolni o’ynashi mumkin? Madaniyat har bir insonni:

- munosib yashashga;
- yaratuvchanlikka;
- rahbarlik qilishga;
- ijrochilikka;
- kurashuvchanlikka;
- himoya qilishga o’rgatadi.

Madaniyat insonni doimiy ravishda ijtimoiylashtiruvchi, o’zini mamlakat va millat taqdiriga bog’liq muammolarni hal etishga safarbar etadigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Madaniyat, qolaversa, Uchinchi Renessansi, ma’rifatli jamiyat va yangi ma’naviy makonni barpo etishga ijodiy-badiiy kuch va ijtimoiy-ma’naviy quvvat beradigan, doimiy ravishda faoliyat ko’rsatadigan muhim omildir.

Ayni paytda inson, jamiyat va davlat hamkorligi jamiyat a’zolarining tafakkur tarziga ham bog’liq. Tafakkur inson ma’naviyatining ajralmas, tarkibiy qismidir. Tafakkur qilgan odamda o’ylash, fikr qilish, muhokama, mushohada, xulosa chiqarish kabi muhim aqliy jarayonlar yuz beradi. Shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarish, mustaqil fikriga ega bo’lmasilik, birovlarga aqliy va tafakkuriy qaramlik — bularning bari qoloq tafakkur xarakterlidir.

Inson, jamiyat va davlat o’rtasidagi hamkorlik yuksak ma’naviyat orqaligina shakllanadi. Ammo globallashuv ta’sirida milliy qadriyatlar tobora yemirilib borayotgan, odamlarda iste’molchilik kayfiyat kundan kunga kengayib ketayotgan, vatansizlik, axloqsizlik kabi tahdidlar urchib borayotgan har davrda insoniyatni turli bala-qazolardan asraydigan yagona kuch ma’naviyat va ma’rifatdir. Shu o’rinda davlatimiz rahbarining bugungi keskin sharoitida dunyoda sodir bo’layotgan g’oyaviy-mafkuraviy sohadaqi shiddatli raqobatga tayyor bo’lishimiz lozim, degan xulosasini e’tiborga olish lozim. Darhaqiqat, bir muhim hayotiy xulosani aytish kerak: biz, o’zbek xalqi, bugungi kungacha nimasa erishgan bo’lsak, yuksak ma’naviyatimiz, ma’rifatimiz bilan erishdik. Ko’hna tarixda nimani yutqazgan, boy bergan bo’lsak, u ham ma’naviyatsizligimiz tufaylidir.

Demak, inson, jamiyat, davlat o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning asl manbai ham ilm-fan, ta’lim, madaniyat, ma’naviyat hamda inson tafakkur tarzini rivojlantirishdan iborat. Ushbu unsurlar orasida ma’naviyat alohida, ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan, ta’lim, madaniyat sohalaridagi, afsuski, bugungi kunda ham uchrab turgan ba’zi noxush holatlar, korruptsiya ko’rinishlari, ayrim adolatsizliklar — bularning bari faqatgina yuksak va kuchli ma’naviyat tufayligina bartaraf etilishi mumkin.

Oltinchidan, inson, jamiyat va davlat o’zaro hamkorligini ta’minlashda ma’muriy usullar bilan uni hal etish aslo mumkin emas. Ma’muriy usul insonni qo’rqitish, majburlash, ayb qo’yib, qiyinash hisobiga ish yuritishdan boshqa narsa emas. Unutmashlik kerakki, inson qo’rqutuvchi emas, jamoatchilik nazorati ostida faoliyat ko’rsatgandagina o’ziga va jamiyatga ko’proq foyda berishi mumkin.

Shu ma’noda, mamlakatimizda turli jamoatchilik nazorat organlarining tashkil etilgan, ayniqsa, mahalla instituti faoliyat ko’rsatishi, aslida, inson, jamiyat va davlat o’rtasidagi o’zaro ishonch mustahkamlanib borayotganidan darakdir. Uchlik o’rtasidagi o’zaro hamkorlik aslida inson, uning tub manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Yuqorida bildirilgan xulosalarimiz, shubhasiz, subyektiv mazmunga ega. Ammo tarixdan ma’lumki va bugungi kundagi reallik dalolat beradiki, har qanday taraqqiyot inson, jamiyat va davlat o’rtasidagi o’zaro foydali hamkorlikka bog’liq. Bu jarayondagi muvaffaqiyat esa barcha subyektlar manfaatlarini uyg’unligidadir. Davlat inson manfaatlarini ifoda etadigan qarorlar qabul qilmasa, shaxsning tobora o’sib boradigan ehtiyojlari inson nazar-pisand etmasa, odamlar iqtidori va iste’dodini ro’yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratmasa, shubhasiz, jamiyatda muayyan noroziliklar yuzaga kelishi mumkin.

Yangi O’zbekistonni barpo etish asnosida biz yuqorida qayd etgan omillar pishiq-puxta e’tiborga olingani, mavjud yulni yitaydi ilmiy jihatdan tahlil etilgani sababli ham davlatimizda sog’lom muhit, inson, jamiyat va davlat o’rtasidagi o’zaro manfaatli hamkorlik shakllandi. Bu jarayonda jamiyat qadriyatlarining o’lchov birligi sifatida insonga bo’lgan munosib munosabat shakllandi. Bugungi yangi O’zbekistonda erishilayotgan barcha yutuqlarimizning manbai ham shundadir.

4

2025-yil 9-iyul, 139-son

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON

Bir o‘lkaki...

SURXONDARYOLIKLARNING
HAYOT TARZI O‘ZGARIB,
ERTANGI KUNGA ISHONCHI ORTIB BORMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Surxondaryoning “havo darvozasi” — Termiz xalqaro aeroporti faoliyati kengaydi. Natijada qatnov keskin oshdi. Chorak asrdan buyon ishlamayotgan Sariosiyo aeroporti qaytadan faoliyat boshladi. Natijada bugun Bobotog‘dan Boysuntog‘ga qadar yastangan vohada, qayerga qaramang, xorijiy investorni, sayyohni, delegatsiyani, talabani, tadqiqotchini, ijtimoiy tarmoq faolini ko‘rsasiz.

Yaqin-yaqingacha viloyatda xoh u katta tadbirkor bo‘lsin, xoh xonadonida mahsulot yetishtirgan ishbilarmon bo‘lsin, ishlab chiqargan mahsulotiga bozor topish masalasi tashvishga solardi. Shu masala hal bo‘lgach, Surxondaryo tom ma’noda bor bo‘y-bast bilan bozorga aylandi. Viloyatda chegaradosh davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

— Bugun viloyatimizda meva-sabzavot, uzum va poliz ekinlari nisbatan ko‘proq yetishtiriladi. Bu mahsulotlar, avvalo, ichki bozor ehtiyojini qoplab, tashqi bozorda o‘z xaridorlarini topyapti. Shu bilan birga, keyingi yillarda Surxondaryoda sanoatning qator tarmoqlari rivojlandi. Natijada qayta ishlash va qo‘shimcha qiymat yaratish orqali eksport hajmini oshirishga hissa qo‘shmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati Investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi mutaxassisi Asilbek Shoto‘rayev. — Tabiiy, iqtisodiy va logistik imkoniyatlar va ulardan to‘g‘ri foydalana olish Surxondaryoning eksport salohiyatini yuksaltirib bormoqda.

Bir paytlar voha ahlining katta qismi ishsizlik sabab xorijga ketishga majbur edi. Hozir esa ular uchun ko‘plab ish o‘rinlari yaratildi. Hatto uйда deyarli qarovsiz, boshqalar nazaridan chetda yashayotgan, ijtimoiy ko‘makka muhtoj yurtodoshlarimiz ham bugun ish bilan band. Bu haqda keyinroq batafsil to‘xtalimiz.

Demoqchimizki, tegishli tashabbuslar va qo‘llab-quvvatlovlar tufayli ishbilarmonlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Eksportga yo‘naltirilgan korxonalar soni yil sayin ko‘paymoqda. Shu bilan birga, mahalliy mahsulotlarni jahon bozorlariga yetkazib berish hajmi oshib boryapti. Bularning barchasi ish o‘rni, oilalarga daromad, farovon turmush degani.

Viloyatning janubi — Termiz, Muzrabot, Angor tumanlari iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligida erta hosil olish imkonini beradi. Masalan, Termiz tumanidagi bog‘larda shu kunlarda shaftoli terimi boshlangan. Bu yilgi hosil kutilganidan ham yuqori bo‘lib, meva sifati va tashqi ko‘rinishi eksport standartlariga javob beradi, — deydi Termiz tumanidagi “O‘ktam bog‘lari” fermer xo‘jaligi agronomi Muhriddin Davronov. — Hozir mahsulotlarimizga Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston kabi davlatlardan katta talab mavjud. Bu bog‘lar, asosan, 2021-yili Gretsiyadan olib kelingan ertapishar shaftoli navi asosida barpo etilgan.

O‘tgan 2024-yilda Surxondaryoning tadbirkorlik subyektlari tomonidan Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Kuvayt va Mo‘g‘uliston kabi mamlakatlarga jami 11 ming 200 tonna,



Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

qiymati deyarli 10 million AQSH dollarga teng bo‘lgan shaftoli eksport qilindi. Shuning o‘ziyiq viloyatda yetishtirilayotgan mevalarga xalqaro bozorda talab yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda kichik mulohaza. Bizda azaldan bozorgir mahsulotlar mo‘l bo‘lgan. Buni katta avlod vakillaridan ko‘p bora eshitganmiz. Maxsus ko‘rgazmalarda eng birinchi o‘rin ko‘pincha bizga nasib etgan, tillarda doston bo‘lgan. Ammo muayyan muddat soha qarovsiz qoldi. Mirishkor dehqon va bog‘bonlarning avlodlari ishsizga aylandi. Hayot qoidasi shunday, daromadsiz sohada ustoz-shogirdlik davom etmaydi. Yoshlar yaxshiroq pul topish yo‘llarini axtarib ketadi. Bugun esa vaziyat tubdan o‘zgardi. Bunday katta uzilishdan so‘ng mahsulotni eksportga chiqarish oson bo‘lmaydi. Buning uchun, avvalo, sifati va yetarlicha mahsulot tayyorlash kerak. Hosil tayyor bo‘lishi bilan xaridorga yetib borishi uchun butun boshli tizim ishlashi zarur bo‘ladi. Mamlakatimizda buni to‘la amalga oshirish uchun viloyat hokimlariga bevosita xorijlik hamkorlar bilan ishlash tizimi yaratib berildi. Qolaversa, bordi-keldini mustahkamlash bilan bojxona tizimi tubdan isloh qilindi. Ha, ois qishloqdagi dehqon mahsulotini yaxshi narxga sota olishi uchun butun boshli tizim isloh etildi.

— Eksport jarayonida bojxona organlari tadbirkorlarga amalda yordam ko‘rsatmoqda.

Xususan, “Eksport — 3 qadamda” amaliyoti orqali viloyatdagi ishbilarmonlarga daladan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyati yaratilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati Bojxona boshqarmasi bosh inspektori Omongeldi Allanazarov. — Bojxona boshqarmasi xodimlari tadbirkorlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, hujjatlar bilan elektron shaklda ishlash, bojxona axborot tizimida yuk deklaratsiyalarini inson omilisiz avtomatik tarzda shakllantirish kabi jihatlarni tushuntirmoqda.

Eksport salohiyatini oshirishda zamonaviy logistika markazlari va infratuzilma alohida ahamiyatga ega. Bugun Surxondaryo vohasida ham mazkur yo‘nalishda izchil va maqsadli ishlar qilinmoqda. Xususan, mahsulotni saqlash, saralash, qadoqlash va tezkor yetkazib berishni ta‘minlaydigan zamonaviy muzlatkich omborlar, logistika terminallari hamda xalqaro talabarga javob beradigan eksport infratuzilmalari yaratilyapti.

“Termiz” xalqaro savdo markazi va uning erkin savdo zonasi Surxondaryoning eksport salohiyatida strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur markaz Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda “Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida tashkil etilgan. Bu hududda eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim qadam bo‘ldi. Xususan, viloyatdagi erkin iqtisodiy va sanoat zonalarida qator yirik ishlab chiqarish loyihalari ro‘yobga chiqarilmoqda. Ushbu loyihalar bevosita viloyatning eksport salohiyatini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

“Termiz” xalqaro savdo markazi logistik jihatdan juda qulay barpo etilgan. Ya‘ni markaz Termiz daryo portidan 17 kilometr, xalqaro aeroportdan 15 kilometr va temir yo‘l vokzalidan 12 kilometr masofada joylashgan. Geografik jihatdan O‘zbekiston janubi va Osiyoning qoq yuragida joylashgan mazkur xalqaro savdo markazi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tashqi bozorga chiqishda muhim platforma vazifasini o‘tayapti.

— “Termiz” xalqaro savdo markazimizda chet el fuqarolariga O‘zbekistonga kirish



Bugunning gapi

XALQ DARDI BILAN YASHASH BIZ UCHUN MAJBURIYAT



Gulruh A‘ZAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi qo‘mita raisi

Joylarda aholini qiynayotgan muammolarni o‘rganish, ularga xolis va haqqoniy baho berish, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini qidirish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi.

Bunday o‘zgarishlar davlat organlarining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlari tubdan takomillashishiga zamin bo‘lib, aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini topish uchun imkoniyat yaratadi.

2016-yil 28-dekabrda Prezidentimizning “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

Xalq bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish, hayotiy muammo va ehtiyojlarini hal etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Qolaversa, bu jarayon har bir rahbarga alohida mas’uliyat yuklaydi, xalq dardi bilan yashash, muammolariga yechim izlashga undaydi.

bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi, unga muvofiq, Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi tashkil etilgandi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida mamlakatning barcha hududlarida yo‘lga qo‘yilgan sektorlar faoliyati davlat organlarini aholi bilan yanada yaqinlashtirish, xalq bilan tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘lgan edi.

Zero, davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan — shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham — shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz, birinchi navbatda, kim bilan muloqot qilishimiz kerak — odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak — avvalo, xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi.

Haqiqatan, avvallari fuqarolar turli tashkilotlar o‘rtasida yillab sarson bo‘ladir.

Odamlarning o‘z arzlari bilan birinchi rahbarlar qabuliga kirishi amrimahol bo‘lib qolgandi. Ayniqsa, davlat organlari va mahalliy hokimiyatlarning temir panjaralar ortiga berkinib olgani odamlarning g‘ashiga tegib, rahbarlarga ishonchini susaytirgandi. Oqibatda davlat organlari bilan xalq o‘rtasidagi masofa anchagina uzoqlashib qolgandi.

Shu sababli davlatimiz rahbari islohotlarni inson huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, xalq bilan davlat o‘rtasiga ishonch ko‘prigini o‘rnatishdan boshladi. Yurtodoshlarimiz murojaatlariga — fikr-mulohazalari, o‘ylari, dard tashvishlari, orzu-armonlariga Prezident darajasida e‘tibor qaratilayotgani har birimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mas’ul rahbarlar eng og‘ir, chekka va olis hududlarga chiqib, mahallama-mahalla, qishloqma-qishloq, ko‘chama-ko‘cha yurib, murojaatlarni tinglash asnosida ularni joyida bartaraf etishni boshladi.

Davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston” gazetasi Bosh muharririga bergan intervyusida xalqni rozi qilish, muammolarini hal qilish, bugungi hayotidan mamnun, baxtiyor bo‘lib yashashi uchun sharoit yaratishga ustuvor ahamiyat qaratishini ro‘yrost o‘chib bergandi.



vizasi bo‘lmagan holda 15 kun davomida kirish va chiqish imkoniyati yaratilgan. Xalqaro savdo markazida tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun barcha shart-sharoit bor. Bu yerda infratuzilmaning zamonaviyligi, logistik xizmatlar yo‘lga qo‘yilgani, bojxona va sertifikatlash soddalashtirilgani — barchasi tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda, — deydi “Termiz” xalqaro savdo markazi tijorat rahbari Zafarjon Abdulkarimov.

Markaz tashkil etilganiga ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, u mahalliy mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishini ancha osonlashtirdi. Yangi bozorlarga yo‘l ochildi. Bu bevosita eksport hajmi ko‘payishiga olib keldi. Shu bilan birga, markaz yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shu orqali aholi farovonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Bundan 7-8 yil oldin ham vohaliklar zargarlik sanoati haqida tasavvur ham qila olmasdi. Mazkur sanoatni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida “Termiz” xalqaro savdo markazi hududidan qulay joy tanlab olingan edi. Ushbu joyda qiymati 6,7 million AQSH dollariga teng muhim loyiha yo‘lga qo‘yildi. Mazkur yerda nafaqat tayyor zargarlik buyumlari, balki yarim tayyor mahsulotlar ham ishlab chiqariladi. Mahsulot to‘laligicha eksport qilinadi. Bu viloyatning tashqi savdo hajmi sezilarli darajada ko‘payishiga xizmat qiladi.

— Zargarlik sanoatidagi bunday rivojlanish “Termiz” xalqaro savdo markazining mintaqaviy eksport infratuzilmasidagi o‘rmini yanada mustahkamlaydi. Sanoat zonamizda energiyatejamkor mahsulotlarni yaratishga ham alohida ahamiyat berilmoqda, — deydi “Termez Gold Production” korxonasi rahbari Jamshid Abdullayev.

Markazning eng muhim tarkibiy qismlaridan yana biri zamonaviy talabarga javob beradigan “Ayritor” logistika markazidir. Termiz savdo markazi Karachi — Termiz — Toshkent — Qozog‘iston — Rossiya yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro transport koridorining muhim bog‘lovchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu yo‘lak orqali Hind okeani portlariga chiqish imkoniyati yaratilishi markazning geoiqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi. Yirik logistika majmuasida mahsulot qabul qilish, saqlash, saralash va qayta ishlashga mo‘ljallangan inshootlar zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan.

Shuningdek, “Yagona darcha” tamoyili asosida yuklarni bojxonadan rasmiylashtirish jarayonini tez, shaffof va oqchiga ovoragarchiliklarsiz amalga oshirish uchun barcha sharoit yaratilgan.

Hozir “Termiz” erkin iqtisodiy zonasida bazalt xomashyosidan mineral vata ishlab chiqarish zavodi barpo etilmoqda. “Surxon sendvich” MCHJning ushbu loyihasi jami 26 million dollar investitsiya kiritiladi. Natijada 320 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, korxona yiliga 4,5 million dollarlik mahsulotni eksportga chiqarishni maqsad qilgan.

“Termiz” xalqaro savdo markazi Afg‘oniston fuqarolari uchun tabiiyot va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kabi keng imkoniyatlarni ham taqdim etmoqda. Bu esa vohada tabiiyot turizmini rivojlantirib, hududning eksport salohiyatini oshiradi.

Bugun viloyatda afg‘onistonlik ishbilarmonlar ishtirokida ikki yuzdan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Tojikistonlik tadbirkorlarning ishlab chiqarish majmualari ham salmoqli o‘rin egallaydi.

Yuqoridagi yurtimizda imkoniyati cheklangan insonlarning ham bandligi ta‘minlanayotganini aytgan edik. Shunday insonlar borki, garchi imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, ular hayotning har bir lahzasini olini o‘m deb biladi. Butun vujudi bilan tinmay mehnat qiladi. Har bir kuniga shukrona aytadi. Ana shunday matonatni insonlarga barcha shart-sharoitni yaratib berish, zarur bo‘lganda, imtiyozlar taqdim etish inson qadri ulug‘lanayotgan yurtimizda muhim vazifaga aylangan.

Masalan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va rasmiy ish bilan ta‘minlash maqsadida 2024-yil 20-fevralda davlatimiz rahbari ishtirokidagi video-selektor yig‘ilishida ham tadbirkorlar uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni ish bilan ta‘minlash bo‘yicha qator imtiyozlar va rag‘batlar belgilandi.

— Davlatning ko‘magi va imtiyoz tadbirkorga ham, imkoniyati cheklangan fuqaroga ham, hududlar iqtisodiyotiga ham, umuman, hayotimizga birdek uyg‘unlikda foyda bermoqda, — deydi “Ijtimoiy himoya” milliy agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi bosh mutaxassisi Ikrom Salimov. — Masalan, “20 ming tadbirkor — 500 ming mutaxassis” dasturi doirasida jami xodimlar sonining kamida 20 foizi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolardan tashkil topsa, 1-yildan

kam bo‘lmagan muddat ishlagan bo‘lsa, tadbirkor mulk va yer solig‘i imtiyozlaridan foydalanishi mumkinligi ta’kidlab o‘tilgan edi.

Bundan tashqari, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, shuningdek, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarni ishga joylashtirish uchun tadbirkorlarga barqarorlik reytingida rag‘batlantiruvchi ball berilishi ko‘zda tutilgan. Bugun bunday ishbilarmonlar hatto eksportga mahsulot chiqarmoqda. Ikki yildan buyon Surxondaryo viloyatida dekabr va mart oylarida “Ijtimoiy himoya” milliy agentligining viloyat boshqarmasi “Imkoniyati cheklangan shaxslar ishlab chiqargan mahsulotlar” savdo yarmakasini o‘tkazadi. Unda Denov tumani “Vodiy” mahallasida faoliyat yuritayotgan tikuvchilik sexi jamoasi ham qatnashib kelmoqda. Bu korxonada nogironligi bo‘lgan 11 nafar fuqaro ishlaydi. Tadbirkor 6 milliard so‘mlik shartnomalar imzolashga erishdi. Ishchilarning qo‘li qo‘liga tegmay, tikilgan mahsulotlarni xaridorlarga yetkazmoqda. Tabiiyki, ish hajmi ortishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga turki berdi.

Gulnoza Yusupova va uning turmush o‘rtog‘i ikkinchi guruh nogironi. Ular uchun uyiga yaqin joydan sex ochilgani ayni muddao bo‘ldi. Gulnoza darrov ishga kirdi. U bugun korxonada bajarilgan ish hajmiga qarab yaxshigina oylik olmoqda.

— Ishchilarimizning korxonamizga kelib ketishi va xonalarda harakatlanishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Harakatlanishida nuqsoni bo‘lgan yana uch kishi esa kasanachilik tartibida o‘z xonadonida ko‘rpa va ko‘rpaachalar qavim ham buyurtmalarni bajarimoqda. Avval hatto tajribali, qo‘l igul va yirik mulkdor bo‘lgan tadbirkor mahsulotini sota olmasdi. Bugun imkoniyati cheklangan fuqarolar tomonidan yaratilgan mahsulotlarimiz ham chetga chiqarilmoqda, — deydi tadbirkor Zarina Toshmurodova.

Termiz shahridagi matras to‘shamasi, ko‘rpa-yostiqli jildlari, bo‘z yopinchiklar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyekti uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib keladi. Tadbirkorlikka e‘tibor kuchaygach, korxonaning ishi yanada rivoj oldi. Bugun ishlab chiqarish muassasasida mehnat qilayotgan 7 ishchining 5 nafari nogironligi bo‘lgan shaxs. Ayni vaqtda yillik 480 million so‘mga yaqin daromadga ega korxona jamoasi yanada yirik kelishuvlarga erishishni ko‘zlamqda. Natijada ish o‘rinlari ko‘payib, ishchi-xodimlar oylik maoshi ham oshdi. Mahsulot esa Tojikistonga sotilmoqda.

Qumqo‘rg‘on tumanidagi trikotaj mahsulotlar ishlab chiqaruvchi shu‘ba korxonada 6 ishchi-xodim faoliyat yuritadi. Ularning 5 nafari nogironligi bo‘lgan shaxslar. Korxona ko‘rpa, yostiqli, matras, yotoqxona to‘plami jildlari, maxsus ishchi kiymalar, tabiiyot xodimlari uchun kiym-kechaklar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Tadbirkorlik subyektingin bir yillik umumi daromadi o‘rtacha 4 milliard so‘m atrofida. Mahsulotlarning salmoqli qismi eksportga yo‘naltirilgan.

Mana shunday o‘zgarishlar sabab bugun surxondaryoliklar hayot tarzi o‘zgarib, ertangi kunga umidi ortib bormoqda. Zero, iqtisodiy barqarorlik kishi qalbida ishonchni mustahkamlaydi.


kelajagimiz” kabi dasturlar bugun hayotimizda ijobiy natijasini bermoqda.

Darhaqiqat, xalq rozi bo‘lib yashagan davlatda fayzu baraka, tinchlik-osoyishtalik, xotirjamlik hukmron bo‘ladi. Xotirjamlik, tinchlik bo‘lgan yurtida esa rivojlanish bardavom bo‘lishi ham ayni haqiqatdir.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida muhokama qilingan mavzular qatorida Xalq qabulxonalarining faoliyatiga ham baho berildi.

Ta’kidlanganidek, oxirgi paytlarda Xalq qabulxonalari aholi dardini eshitib, masalalarni hal qilish o‘rniga murojaatlarni davlat tashkilotlariga taqsimlovchi vositachiga aylanib qolgandi. Natijada joylardagi hal bo‘lmagan muammolar ijtimoiy tarmoqlar orqali mutasaddilarga “yetkazila” boshlandi. Zero, har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turibdi. To‘g‘ri-da. Keyingi yillarda qabul qilinaayotgan ko‘plab qaror va farmonlarda o‘z ifodasini topayotgan masalalar aslida, xalqimizning qalbid saqlab yurgan orzularimasini?! Yoki xalqning tashvishini yengillashirish uchun mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, muammolarga tik qarab, ularni bir chetdan hal qilishga kirishilgani vatanparvarlik, xalqchilik, shijoat va jasoratdan dalolat emasmi?!

Bu aytishga oson. Bu yo‘l oddiy emas, xalqning dardi bilan mehri bog‘langan ishonch yo‘lidir. Bu mamlakatimizda uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan pragmatik xalqchil siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri va uni barchamiz birgalikda davom ettiramiz, hech qachon ortga qaytmaymiz. Shubhasiz, xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

Nuqtayi nazar

Bugun jahonda xalqlar o‘rtasidagi muloqot hamda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hamkorlikka har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj mavjud. Chunki dunyoda tobora avj olayotgan ziddiyatlarning asl sabablaridan biri ayni shu muloqotning yo‘qligi yoki yetarli darajada emasligidir.



Tadbirda nufuzli oliy ta‘lim muassasalari rektorlari ishtirok etib, ikki xalqning tarixiy hamkorlik aloqalarini ta‘lim jarayonlariga chuqur tatbiq etishga qaratilgan bir qancha kelishuvlarga erishildi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ham Ozarbayjon san‘at va madaniyat sohasi vakillari bilan chuqur hamkorlik aloqalariga ega. Xususan, o‘tgan yili yurtimizda o‘tkazilgan Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasida Sohib Poshododaga O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti faxriy professori unvoni topshirildi. Shuningdek, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi bilan hamkorlikda ko‘plab tadbirlar uyushtirildi.

MADANIY DIPLOMATIYANING YANGI UFQLARI



Nodirbek SAYFULLAYEV, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor

O‘zbekistonning xalqaro maydonda tinchlikparvar siyosat yuritishi, o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashi tahsinga sazovor. Davlatimiz dunyo hamjamiyatida ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish, madaniy va ma‘naviy aloqalarni mustahkamlash orqali mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Mo‘g‘uliston, Belarus va Ozarbayjonga tashriflari mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiqqligini yana bir bor namoyon etdi. Ushbu tashriflar doirasida madaniy aloqalarni rivojlantirish masalasi ham alohida o‘rin egallayotgani yurtimizda madaniy diplomatiyaga katta ahamiyat qaratilayotganidan dalolatdir.

Joriy yil 2-4-iyul kunlari Prezidentimiz davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo‘ldi.

O‘zbek hamda ozarbayjon xalqlarining aloqalari ming yillarga borib taqaladi. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy do‘stligi Ozarbayjon — O‘zbekiston adabiy aloqalarining asosi hisoblanadi. Shu o‘rinda hazrat Navoiy:

“Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy Ganjaviyga panja urmoq”, deyva Ganjaviyni yuksak e‘tirof etganini yodga olish joizdir.

Ikki xalqning tarixiy rivojlanish o‘zani bir, shu sabab madaniyati va san‘ati ham o‘xshash. Mug‘om va maqom san‘ati Ozarbayjon va O‘zbekiston xalqlarini birlashtiradigan yana bir azaliy madaniy o‘zan. Mug‘omlar va maqomlar xalqlarimiz musiqiy tafakkuri sarchashmasi bo‘lib, go‘zal namunalarni bizgacha bezovul yetib kelgan. Bu an‘analarda bugungi kunda ham davom etib, ozarbayjonlik musiqa ustalari yurtimizda

o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari”, Xalqaro maqom san‘ati, Baxshichilik va “Lazgi” festivallarida muntazam ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbek teatr san‘ati Ozarbayjon teatri bilan uyg‘un rivojlangan. 1925-1927-yillarda Halima Nosirova, Sayfi Olimov, Nazira Aliyeva, Zuhur Qobulov, Sa‘dulla To‘raboyev, Hakima Xo‘jayeva, Karim Yagubov, Rahimberdi Bobojonov kabi o‘zbek teatri namoyandalari Bokudagi Mirza Fatali Oxundov nomidagi teatr texnikumi huzurida tashkil etilgan o‘zbek aktyorlarini tayyorlash studiyasida tahsil olgan. Bundan tashqari, Ozarbayjon elining ardoqli farzandi, atoqli o‘zbek shoiri Maqsd Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, “Jalolidin Manguberdi” dramasi, Uzayr Hujibekovning “Arshin mol-olon”, Emin Sobit o‘g‘lining “Hijron” musiqali komediyalari hali-hanuz o‘zbek tomoshabinining sevimli asarlaridan, spektakllaridan hisoblanadi.

Bu aloqalar har qanday sharoitda ham davom etib keldi hamda bugun ikki davlat rahbarining sa‘y-harakatlari natijasida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqib bormoqda.

2023-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida 960 o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy maktab qurilib, foydalanishga topshirilgan edi. Bu maktab xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, o‘shib kelayotgan ozarbayjonlik o‘g‘il-qizlarni O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga, buyuk ajdodlarimiz merosiga oshno etishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va amalga oshirilishi nazarda tutilgan ulkan vazifalarni ikki xalq aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish uchun zamin yaratmoqda, desak yangilishmaymiz. Jumladan, tashrif doirasida birinchi parlamentlararo forum, hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, hududlar va rektorlar forumlari, siyosiy maslahatlashuvlar, qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Muzokarlarda ikki mamlakat o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani keng ko‘lamda amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, Boku shahrida mamlakatimizning Ozarbayjondagi elchixonasi yangi binosi ochildi.

Albatta, ushbu elchixona ham hamkorlikning bugungi ko‘rinishiga monand ko‘rkam hamda hashamatli ekanini kishini quvontiradi. Uning zallari O‘zbekiston hududlari nomi bilan atalgan. Prezidentimiz xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik ramzi sifatida zallardan biriga Qorabog‘

nomini berishni taklif etdi. Bu ham ikki davlatning xalqaro maydonda o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlayotganidan darak.

Davlat rahbarlari ishtirokida Boku shahrida “O‘zbekiston” bog‘iga tamal toshi qo‘yilishi barchaning ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Bunday maskanning barpo etilishi, avvalo, O‘zbekistonning boy madaniyati va tarixini Ozarbayjon aholisi va ushbu davlat mehmonlariga yaqindan tanishtirish imkonini bersa, ikkinchidan, ikki xalq abadiy do‘stligining ramziy ifodasiga ham aylanadi.

Bog‘ hududida yurtimiz me‘moriy obidalari nusxalari, sayilgohlar, yashil hududlar, mehmonxona, turli savdo va ko‘ngilochar maskanlar barpo etiladi. Binolar qurilishi va bezagida o‘zbek milliy me‘morligi an‘analari hamda naqshlaridan foydalaniladi.

“Xalqlar o‘rtasidagi madaniyat va san‘at, musiqa va adabiyot singari gumanitar hamkorlik chuqurlashuvi boshqa sohalar ham rivojlanishining muhim omilidir. Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining muhim sohasi bo‘lmish turizm ham aslida madaniy hamkorlikdan kuch oladi, uning iqtisodiy farovonligiga sabab bo‘ladi. Bu hodisani, xususan, O‘zbekiston va Ozarbayjon misolida ko‘rish mumkin.

Kelgusida bu egzu an‘ana davom etgan holda O‘zbekistonda bo‘ljak “Ozarbayjon” bog‘i va noyob “Sea Breeze” sayyohlik majmuasi loyihalari faol tayyorlanayotgani ta‘kidlandi.

Joriy yilda ikki qardosh mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanishi munosabati bilan ushbu muhim sanaga bag‘ishlangan yirik tadbirlar, konsertlar va yoshlar forumlarini birgalikda o‘tkazishga kelishib olindi.

Boshqa xorijiy safarlarda bo‘lgani kabi ushbu tashrifda ham madaniy tadbirlarga hamda fan va ta‘lim yo‘nalishlariga alohida urg‘u berildi. Zero, bu ikki xalqning madaniy aloqalari tarixan mustahkam poydevorga hamda o‘zaro hurmat ruhiga ega.

Davlat rahbarlari o‘rtasida imzolangan hujjatlar ichida Fan, kasb-hunar va oliy ta‘lim sohalarida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitimning borligi so‘zimiz isboti. Ushbu hujjat asosida O‘zbekiston va Ozarbayjon ta‘lim va fan sohalaridagi hamkorlikni milliy qonunchilik doirasida rivojlantirish va kengaytirish bo‘yicha qator yo‘nalishlarda faol hamkorlik qilishga kelishib oldi.



ozarbayjon xalqlarining ko‘p asrlk do‘stligi, an‘ana va qadriyatlarini yana bir bor namoyon etilgan edi.

2025-yilning 29-30-aprel kunlari Ozarbayjon davlat akademik milliy drama teatrida ilk marotaba o‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida sahnalashtirilgan spektakl premiyerasi ozarbayjon xalqi tomonidan juda iliq kutib olindi. Bu ham madaniy hamkorlikning yana bir namunasidir.

2024-yil avgust oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan XIII Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalida Ozarbayjonning “Semurg” guruhi, joriy yil aprel oyida azim Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalida “Oshiqlar” guruhi Gran-pri g‘oliblari bo‘ldi.

Qolaversa, joriy yil iyun oyida Boku shahrida o‘tkazilgan “Mug‘om olami” VII xalqaro musiqa festivalida O‘zbekiston vakillari 1- va 3-o‘rinni egalladi.

Joriy yilning may oyida Andijonda “O‘zbekiston — Ozarbayjon: oliy ta‘lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida ikki mamlakat oliy ta‘lim muassasalari rektorlari ishtirokidagi birinchi forum yuksak saviyada tashkil etildi. Forumda erishilgan kelishuvlar bugun davlatlarning ta‘lim sohasidagi aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish, ilg‘or tajribalarni joriy etish va strategik hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ilmiy muassasalar va oliygohlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, talabalar, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar almashinuvini tashkil etish, qo‘shma ta‘lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, o‘quv-uslubiy materiallar va innovatsion tajribalarni o‘zaro almashish — bularning barchasi bitim mazmunida alohida o‘rin tutadi.

Xalqlar o‘rtasidagi madaniyat va san‘at, musiqa va adabiyot singari gumanitar hamkorlik chuqurlashuvi boshqa sohalar ham rivojlanishining muhim omilidir. Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining muhim sohasi bo‘lmish turizm ham aslida madaniy hamkorlikdan kuch oladi, uning iqtisodiy farovonligiga sabab bo‘ladi. Bu hodisani, xususan, O‘zbekiston va Ozarbayjon misolida ko‘rish mumkin.

2022-yilda Gulyanaq Mammadova O‘zbekiston xalq artisti, Nasiba Abdullayeva Ozarbayjon xalq artisti unvonini olgan. 2024-yilda Prezidentlar farmoni bilan Farrux Zokirov va Po‘lat Bulbul o‘g‘liga “xalq artisti” faxriy unvonlari berildi hamda Ozarbayjon Prezidentining yurtimizga tashrifi doirasida ikki mamlakat san‘at ustalari konserti o‘tkazilib, unda o‘zbek va

MILLIY TA‘LIMDA XALQARO STANDART

Yangi O‘zbekiston dunyoga keng quchoq ochdi. Har bir sohada aloqalar, hamkorlik ko‘lami kengaydi. Xususan, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish borasida ham kelishuvlarga erishilyapti. Shu jarayonda yoshlarga hunar o‘rgatadigan texnikumlarda faoliyat yuritadigan ustozlar xorijdagi hamkasblari bilan aloqalarni mustahkamlayotgani quvonarli. Negaki, ta‘lim olish ma‘lum yosh bilan chegaralanmaydi. O‘qituvchilarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi ularning kelgusi faoliyati uchun juda muhim. Chunki o‘n nafar o‘qituvchi xalqaro miqyosda bilim bersa, yuzlab yoshlar uyidan olis ketmay yuqori darajada ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ladi. Ya‘ni yuzlab yoshlarni xorijda o‘qitishdan ko‘ra, o‘nlab o‘qituvchilarni xalqaro toifaga chiqarish samaraliroqdir.

Yangicha yondashuvlar

Shu bois, 2024-yilda Qashqadaryo viloyati hokimligi mas‘ullari Germaniya davlatida bo‘lib, qator hamkorliklar borasida kelishuvga erishdi. Ushbu kelishuvlar orasida Germaniyadagi “Avestos” kompaniyasi hamda Leypsigdagi Hunarmandchilik palatasi ish tajribasini o‘rganish ham maqsad qilingandi. O‘tgan yili dastlabki harakatlar boshlandi. Shahrisabz shahri va G‘uzor tumanidagi 1-sonli politexnikumlarda kasbga o‘qitish bo‘yicha nemis dasturi yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning o‘zida ikkala texnikumdan 8 nafar ishlab chiqarish ta‘limi ustasi Germaniyaga malaka oshirishga yuborildi.

— Xorijdagi bir oy vaqtimiz samarali bo‘ldi, — deydi Shahrisabz shahridagi 1-son politexnikumining ishlab chiqarish ustasi G‘ulomjon G‘ofurov. — Xizmat safari davomida nemis tajribasini puxta o‘zlashtirishga harakat qildik. Tajriba almashish jarayonida u yerdagi o‘quv markazida bo‘lib, metalga ishlov berish jarayonlari bilan qiziqdik. O‘zimiz bevosita ishtirok etib, tajribalarini o‘rganishga harakat qildik. Yurtimizga qaytgach, texnikumda nemis uslubida ishlashni boshladik. Hozir germaniyalik mutaxassislar bilan maslahatlashib turibmiz. Ular ham yurtimizga



kelgan, bir yil davomida o‘quv dasturlarimiz bilan yaqindan tanishgan edi. Shu bois, bir-birimizni tushunish, ishdagi vaziyatni to‘g‘ri baholash oson bo‘lmoqda.

O‘tgan yilning oktyabr oyidan Germaniyada tajriba oshirib kelgan o‘qituvchilar harakati bilan G‘uzor tumani va Shahrisabz shahridagi politexnikumlarda yoshlarni kasbga o‘qitish boshlangan edi. Unda 32 nafardan ikkita guruhda jami 64 nafar yosh ta‘lim olyapti. Ta‘lim, amaliyot

jarayonini esa nemis mutaxassislari doim kuzatib, zarur vaqtda maslahat berib boryapti.

— Maqsadimiz yoshlarni o‘z ishining ustasi qilib tayyorlashdir, — deydi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i Olimjon Mavlonov. — Shu maqsadda yangi loyihalar ustida ish olib borilyapti. Misol uchun o‘tgan yili Germaniya standarti bo‘yicha kasb-hunar o‘rgatish borasida dastlabki harakatimiz yaxshi natija berdi. Shu sabab joriy yilda

ko‘proq o‘qituvchi yuborishni reja qildik. Jumladan, Qarshi transport va servis, Qarshi shahar 2-sonli, Koson tumani 1-sonli hamda Chiroqchi tumani 1-sonli politexnikumlardan jami 24 nafar ishlab chiqarish ustalari o‘qishga jo‘natiladi. Bu safar vakillarimiz ikki oy davomida metallarga ishlov berishda Germaniya tajribasini o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

Yangi loyiha hududlarda yoshlarning kasb o‘rganishiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiriyapti. Natijada texnikumlarda tahsil oluvchilar safi kengayib boryapti. Shuningdek, umumta‘lim maktabini bitirgan yoshlar vaqtini behuda sarflamasdan biror hunarni boshidan tutish harakatida. Buning uchun texnikumlar ham yetarlicha tayyor bo‘lishi kerak. Bunda ustozlarning mahorati juda muhim. Ishining bilimdoni bo‘lgan kishilar esa doim yoshlarni ortidan ergashtirishning uddasidan chiqadi.

— Ancha yillardan beri o‘quv muassasamizda yoshlarga hunar o‘rgatib kelaman, — deydi Eshmurod Jabborov. — Yangi loyiha bo‘yicha xorijlik hamkasblarimiz bilan tajriba almashishga boramiz. Bu bizga foydali bo‘lishi aniq. Chunki Germaniyadan qaytgach, yangi standartlar bo‘yicha ishlashni boshlaymiz. Buning uchun bizda barcha sharoit yetarli. Ustaxonalarimiz yangi jihozlar bilan ta‘minlangan. O‘rganishni istaydiganlar ko‘p.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, yangi loyiha ish boshlagan texnikumlarda yoshlar ikki yil davomida Germaniya standarti bo‘yicha hunar o‘rganadi. O‘qish yakunlangach, ular olgan diplom butun Yevropa davlatlaridagi barcha korxonaga ishga joylashish imkonini beradi. Qolaversa, xohlovchi yoshlar Germaniyaga ishga taklif etiladi. Ayni paytda texnikumlardan 24 nafar ishlab chiqarish ustasi Germaniyaga jo‘nab ketdi.

Yana bir gap. Xalqaro aloqalar bu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-20-iyun kunlari viloyatga amalga oshirgan tashrifi chog‘ida mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, kartoshka yetishtirish hajmini oshirish bo‘yicha Misming ilg‘or tajribasini o‘rganish vazifasi qo‘yilgan.

Shu bois, viloyatning soha mas‘ullari va tashabbuskor fermerlardan iborat delegatsiyasi Misrga xizmat safariga yuborildi. Ular Mismring qishloq xo‘jaligi sohasi, ayniqsa, kartoshka yetishtirishdagi ilg‘or texnologiyalar, agrotexnika usullari va eksport salohiyati bilan yaqindan tanishdi. Kartoshka yetishtiruvchi bir qator yirik kompaniyalar rahbarlari bilan ham muzokara olib borilyapti. Bu ham yangi O‘zbekiston dunyoga ochilishi orqali xalqaro standartlarni o‘zlashtirib, yuksalishning yangi bosqichiga o‘tayotganidan dalolat beradi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

